

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI

"JAHON TARIXI" kafedrasi

**ETNOLOGIYA KURSIDAN SEMINAR
MASHG'ULOTLARI O'TKAZISH BO'YICHA**

USLUBIY QO'LLANMA

Qarshi-2020-yil

Muallif:

t.f.n F.SH.Raxmonov

Mazkur uslubiy qo'llanma “Tarix” bakalavriat yo‘nalishi-5120300 (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) o‘quv rejasidagi “Arxeologiya va etnologiya” tarkibidagi “Etnologiya” kursi (I kurs 2-semestr) bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarga tayyorlanishga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida tuzilgan. Qo’llanmada seminar mashg‘ulotlarini tayyorlash, o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar, mavzu rejalarini va savollari hamda zarur manba va adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Mazkur qo’llanma talabalar va o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

**Ochil Bo‘riyev,
Qarshi DU professori.**

**Nilufar Rajabova,
Qarshi DU “Jahon
tarixi” kafedrasi katta
o‘qituvchisi, t.f.n.**

Ushbu uslubiy qo’llanma Qarshi davlat universiteti uslubiy kengashining 2020 yil 6 mart 8-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

MUQADDIMA

Hozirgi jahon miqyosidagi integratsiyalashuv davri har xil dramatik hodisalarga boy bo‘lib, barcha xalq va millatlarning tur-mush tarzi, madaniyati va ma’naviyatiga ulkan ta’sir o‘tkazmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ayrim etnoslar hayotiga, ularning o‘zaro munosabatlari va aloqalariga ham jiddiy o‘zgarishlar kiritmoqda.

Jahon aholisi XXI asr 20 - yillarida yetti milliarddan oshdi. So‘nggi bir asr davomida Yer kurrasidagi xalqlar son jihatdan ko‘payibgina qolmay, ularning etnik tarkibi, turmush tarzi va moddiy ma’naviy dunyosi ham tubdan o‘zgarishga yuz tutdi. Ona tabiat naqadar rang-barang va xilma-xil bo‘lsa, Yer yuzida yashovchi aholining etnik qiyofasi ham shu qadar rang-barang va turli-tumandir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan asr oxirlarida jahonda ikki mingdan ortiq xalqlar va elatlar yashagan. Ba’zi manbalarda esa Yer yuzida yashovchi katta-kichik etnoslarning soni uch-to‘rt mingga yaqin, deb ko‘rsatiladi. Shularning 260 tasi bir milliondan ortiq kishiga ega xalqlardan iborat bo‘lib, jahon aholisining 96 foizini, dunyoda eng kam sonli aholiga ega bir yarim mingga yaqin elatlar esa bir foizini tashkil qiladi. Tili jihatidan bir-biridan ajralib turadigan etnik birliklarning soni esa uch mingdan ortiq.

XX asr iqtisodiy-ijtimoiy bo‘hronlar, ekologik, etnik muammolar asri bo‘ldi. Bu muammolar o‘z-o‘zidan XXI asrga ham ko‘chib o‘tdi. Shunday ekan bunday vaziyatda yoshlarning ongi va bilimini, jamiyatni boshqarishga aloqador barcha shaxslarning tasavvurlarini etnologik ma’lumotlar bilan boyitish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etadi.

“Etnologiya” fanini o‘qitishdan asosiy maqsad – jahon xalqlari to‘g‘risida talabalarda xolisona ilmiy dunyoqarash, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir. Ushbu fanning vazifasi esa xalqlarning

kelib chiqishi (etnogenezi), an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy jarayonlar masalalarini o'rgatishdan iborat.

“Etnologiya” fani haqidagi bilimlarni qaror topdirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Shuningdek ushbu fan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajriba-sidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va jahon miqyosida mavjud bo'lgan muam-molarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

O'quv rejadagi “Arxeologiya va etnologiya” fani tarkibidagi “Etnologiya” kursi “Tarix” yo'nalishi I bosqich talabalariga asosiy ixtisoslik fani sifatida o'qitilib, mazkur fan uchun o'quv rejada II semestrda 20 soat ma'ruza, 30 soat hajmida seminar mashg'ulotlar olib borish belgilangan.

“Etnologiya” fani bo'yicha ushbu uslubiy qo'llanma, seminar mashg'ulotlariga talabalarning tayyorlanishiga amaliy yordam berish uchun mo'ljallangan.

I.O‘quv materiallarining tarkibi

Umumiy soat	O‘quv semestri	Ma’ruza	Seminar	Mustaqil ish
88	II	20	30	38

Seminar mashg‘ulotlar olib borish uchun tavsiyalar.

Seminar - oliy yoki o‘rtalik maxsusus ta’lim tizimi talaba (o‘quvchi)-larining muayyan nazariy kursni qanchalik o‘zlashtirganliklarini aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘quv amaliyotining muhim turlaridan biri. Talaba tomonidan bajarilgan referat, ma’ruza, ilmiy tadqiqotning muhokamasidan iborat. Seminar, albatta, mavzuni ilmiy tadqiq etgan professor-o‘qituvchi yoki tegishli mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. O‘quv predmeti xarakteri, mashg‘ulot maqsadi, o‘quv yurti yo‘nalishiga ko‘ra ayrim o‘ziga xosliklar bilan universitet, institut hamda xalq xo‘jaligi sohalarida keng tarqalgan. Ba’zan ma’ruzaga bog‘liq bo‘limgan holda, muayyan mavzudagi mustaqil ta’lim shakli sifatida ham o‘tkaziladi.

Ta’limning seminar shakli darslar, asosan, bahs-munozara tarzida uyushtiriladigan Qadimgi Yunoniston va Rim maktablarida vujudga kelgan. XVII asrdan boshlab G‘arbiy Yevropa universitetlarida gumanitar yo‘nalishda o‘qiydigan talabalarning asl manbalar bilan ishslash usuli ta’limning asosiy shakli sifatida qo‘llanilganligi semi-narning taraqqiyoti va hozirgi shaklga kelishida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy seminarlar muayyan predmetni chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan. Seminar mashg‘ulotlari davomida talaba (o‘quvchi)lar ilmiy ish yuritish tajribasi, o‘z xulosalarini og‘zaki va yozma ravishda ifodalay olish hamda nuqtai nazarlarini asosli himoyalash malakasiga ega bo‘ladilar. Bu xil mashg‘ulotlarning uch turi mavjud: muayyan kursni chuqurlashtirib o‘rgatishga yo‘naltirilgan seminar; kurs doirasida asosiy va muhim hisoblangan mavzularni o‘rganishga qaratilgan seminar; ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan, ma’ruza mavzusiga aloqador bo‘limgan seminar. Seminar mashg‘uloti o‘tkazishning

asosiy shartlaridan biri barcha ishtirokchilar uchun mavzu yoki mutaxassislikka bog‘liq adabiyotlar, manbalar, arxiv materiallari va qo‘lyozmalardan foydalanishda birdek imkoniyat yaratilishidir.

Seminar mavzulari tegishli professor-o‘qituvchilar tomonidan tuzilib, kafedra majlisida tasdiqlanadi. Seminar mavzusini qiziqishlari ko‘ra, talabalarning o‘zlari tanlashlari mumkin. Seminar rahbari o‘tkaziladigan seminarning maqsadi, mavzu-mundarijasi, uning metodologik yo‘nalishini ma’ruza, ma’ruza-suhbatlar vositasida tushuntirib beradi. Undan keyin har bir mavzu bo‘yicha aniq talablar belgilab beriladi, adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi. Seminar rahbari esa bunda maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Seminar mashg‘ulotlarining mahsuli, odatda, referat bo‘ladi. Referatlar mashg‘ulot davomida tinglanadi va muhokama etiladi. Referatlar mavzuga mos kelishi, metodologik asosi to‘g‘ri bo‘lishi, mantiqan izchil va aniq ifodalanishi, ilmiy xulosalar asosli hamda amaliyotga aloqador bo‘lishi kerak. Muhokama jarayonini fikr almashuv tarzida, barcha savollarga javob topa olish imkonini beradigan darajada tashkil etish seminar rahbarining asosiy vazifasidir. Seminar mavzulari keyincha-lik talaba (o‘quvchi)larning kurs, diplom ishlari mavzusiga aylanadi. Ular hatto dissertatsiya mavzusi darajasigacha ham chiqishi mumkin.

Seminar mashg‘ulotlarining eng muhim tuzilishi quyidagicha:

- 1.Kirish so‘zi.
- 2.Reja bo‘yicha savollarni muhokama qilish.
- 3.Mashg‘ulotlarni yakunlash va kelgusi mashg‘ulotga vazifa berish.

O‘qituvchi kirish so‘zida seminar mashg‘ulotlarining maqsadi, vazifalari, etnologiya kursida bu o‘rganilayotgan mavzuning o‘rnini, ahamiyati va o‘tgan mavzu bilan bog‘liqligini bayon etadi.

Mashg‘ulotning asosiy savollariga, ayniqsa ko‘proq e’tibor beriladi. Talabalarning mashg‘ulotlarga tayyoragarligi so‘raladi.

Kirish so‘zi aniq va qisqa bo‘lishi lozim, o‘qituvchi hozirgi davr bilan bog‘lanishiga talabalarni o‘rgatishi kerak. Fikrimizcha, o‘qituvchi mashg‘ulot vaqtini quyidagicha taqsimlashi mumkin:

- 1.Kirish so‘zi- 5daqiqa
2. Birinchi savolni muhokama qilish -20 daqiqa.
 - a) savolni umumlashtirish- 5 daqiqa.
3. Ikkinchi savolni muhokama qilish- 10 daqiqa.
 - a) savolni umumlashtirish- 5 daqiqa.
4. Uchinchi savolni muhokama qilish- 15 daqiqa.
 - a) Uchinchi savolni umumlashtirish- 5 daqiqa.
5. Referatlar muhokamasi – 10 daqiqa.
- 6.Mashg‘ulotni yakunlash, baholarni e’lon qilish va kelgusi mashg‘ulotga vazifa berish – 5 daqiqa.

Dastlab talabalarning doska oldiga chiqib, so‘zlashi hisobga olinadi. O‘z xohishi bo‘yicha so‘zlagan talabalarni esa rag‘batlantirish kerak. O‘qituvchi guruh jurnali bo‘yicha talabalarning chiqib so‘zlashini ham qo‘shib olib borishi lozim. Aks holda talaba faqat bitta savolga tayyorlanib, qolgan savolga tayyorlanmaslikka odatlanib qoladi. Talaba mashg‘ulotning asosiy savollariga javob berganda daftardagi matnidan ajralgan holda mustaqil so‘zlashga o‘rganib, o‘qituvchi uning nutqini nazorat qilib borishi lozim. Chunki talabalarning ko‘pchiligi turli shahar va qishloqlardan bo‘lib, ularning aksariyati o‘z mahalliy shevalarida gaplashishadi. Shuning uchun ularni sof adabiy tilda gaplashishga o‘rgatish kerak. So‘zga chiqqan talaba savolning eng muhim tomonlarini qo‘srimcha adabiyotlar asosida yoritadi. Agar savolning ayrim qismalari yortilmasa uni boshqa talaba to‘ldiradi.

Notiq talabaga o‘qituvchi va guruhdoshlari shu mashg‘ulot bo‘yicha o‘tgan mavzular, hozirgi etnik jarayonlar, mahalliy materiallar va xaritadan savollar berishi mumkin. Agar u javob bera olmasa, guruhdoshlari javob beradi. O‘qivchi savolni eslay olmasa,

O‘qituvchi savolni to‘ldiradi. Savollar muhokamasiga guruhdagi hamma talabalarni jalb etish lozimki, birontasi ham chetda qolmasin. Mashg‘ulotda ijodiy muhit vujudga kelishi kerak.

Savollar muhokamasi tugagach , shu mashg‘ulot mavzusiga oid 1-2 referat ko‘rib chiqiladi. Referat tayyorlash talabalar bajaradigan mustaqil ishning eng murakkab turlaridan biridir. Qomuslar va ma‘-lumotnomalarda referat so‘zi lotincha “ma’ruza qilaman.” “ma’lum qilaman” degan so‘zlardan kelib chiqqan. Bu so‘z kitobning, maqolaling yoki ilmiy asarning mazmunini yozma shaklda qisqacha bayon qilish deb ta’riflanadi. Shuningdek muayyan mavzudagi va yozma tadqiqotlar ham referat deyiladi. O‘quv yilining boshida kafedra huzuridagi ilmiy uslubiy seminarlarda referatlar mavzulari muhokama qilinib tasdiqlanadi. Mavzularni o‘tishda turli etnografik materiallar va dala yozuvlaridan ham foydalaniladi. Mavzular ko‘proq talaba tug‘ilib o‘sgan mavze, hudud etnografiyasiga bog‘langan holda tuzilsa yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qituvchi referatlar mavzularini taqsimlab ma’ruza qilish vaqtini belgilab beradi. Har bir talaba seminar davomida bitta referat yozadi. O‘qituvchi talabaga referat rejasini tuzish hamda manbalarini tanlashda ko‘maklashadi. Konsultatsiya paytida referat yozish uslubi haqida tushuncha ham beradi. Agar 1-2 nafar talaba referat yozgan talabaning ishi bo‘yicha opponent sifatida tayyorgarlik ko‘rsa juda foydali bo‘ladi. Talabalar ma’ruzachilarga savollar berishadi. O‘qituvchi referatni baholaydi. Kafedra eng yaxshi referatlar ko‘rgazmasini tashkil etishi, mavzuni talabalar ilmiy jamiyatni dasturiga kiritishi va tanlovlarga taqdim etishi ham mumkin.

Talabalarning mustaqil ishga ishtiyoqini oshirish, seminar darslarga tayyorgarligini yaxshilash va bilimini mustahkamlash uchun mashg‘ulotlarning bir savoli bo‘yicha semestr mobaynida kamida ikki marta yozma ish o‘tkazish mumkin. Yozma ish talabalarning seminarga nechog‘lik tayyorgarligini ko‘rsatadi. Yozma ishni

nomiga emas, balki mazmunli o‘tash, yakuni guruh o‘rtasida chuqr tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, seminar mashg‘ulotlarini har bir oyda yakunlab talabalarni attestatsiyadan o‘tkazish lozim. Attestatsiyadan o‘tmagan talabalarga qo‘sishimcha konsultatsiyalar uyuştirib, so‘ngra nazoratdan o‘tkazish lozim. Seminar mashg‘uloti va nazorat yakunlari bo‘yicha doska- ekran tashkil etish, baholarni tushirib borish kerak. Attestatsiya yakunlari kafedra yoki dekanatga taqdim etiladi. Seminar mashg‘ulotlarini imkoniyatlarni hisobga olib sanoat korxonalarida, xo‘jaliklarda va muassasalarda o‘tkazish mumkin.

Masalan, ayrim seminar mashg‘ulotlarini Qashqadaryo viloyati, tarix va madaniyat muzeyida “Motamsaro ona” memorial majmusa-sida, Qarshi shahridagi “Vatanparvarlar bog‘i”da, Xoja Ubaydulloh bin Jarroh, Abul Muyin an- Nasafiy ziyoratgohlarida, Yerqo‘rg‘on, Shulluktepa arxeologik manzilgohlarida, Shahrisabz shahri tarixiy majmularida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg‘ulotlar talabalarni o‘zbek xalqi mehnat va jangovar an’analari ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Agar mashg‘ulotlar deputatlar, yetakchi olimlar, mehnat faxriy- lari, ikkinchi jahon urushi yillarida mehnat fronti ishtirokchilari, sanoat va dehqonchilik majmuasi ishlab chiqarish ilg‘orlari, xalq bilimdonlari – baxshilar taklif etilib, ular o‘z taassurotlarini gapirib bersalar seminar yanada jonli bo‘ladi. Seminar mashg‘uloti o‘qituv-chining yakunlovchi so‘zi bilan tugaydi.O‘qituvchi yakunlovchi so‘zida guruhning mashg‘ulotga tayyorgarlik darajasini, yutuq va kamchiliklarini, har bir talabaning fikrini atroflicha tahlil etadi, to‘l- diradi hamda qo‘yilgan baholarni e’lon qiladi. Tajribalarga ko‘ra mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi seminar va adabiyotlar daftarinи tekshirib baholaydi. O‘qituvchi mashg‘ulot bo‘yicha umumiy xulosa chiqarib, kelgusi seminarga tayyorlanish uchun uslubiy maslahatlar beradi.

Seminar mashg‘ulotlarida ko‘rgazmalikning turli shakllaridan – diafilm, grafiklar, tarixiy xaritalar, fotomateriallar kabilardan ham foydalanish katta samara beradi. Texnika vositalaridan foydalanilsa talabaning bilim saviyasi yanada oshadi chuqurlashadi. Noma’lum dalillar aniq bo‘ladi va talabaning fanga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.

Seminar mashg‘ulotlarining shakl va uslublari rang barang bo‘lib, doimo takomillashib boradi. Mashg‘ulotlarni nomigagina o‘tkazib, talabalarni daftardan tayyor matnni o‘qib berishi ularning fanga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndiradi. Mashg‘ulotda talabalarda notiqlik mahoratini, ko‘nikmalarini shakllantira borib, auditoriyada va tinglovchilar oldida bemalol o‘z fikrini ifoda etishga o‘rgatish lozim.

Mashg‘ulotlar darajasini belgilaydigan asosiy omil uning mazmuni yuqori darajada bo‘lishidir. Agar o‘qituvchi mashg‘ulotlarni aniq va puxta tashkil etib, auditoriyada oshkoraliq muhitini qaror topdirsa hamda talabalar o‘rtasida o‘zaro tanqid va talabchanlik bo‘lsa seminar katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Kafedra o‘qituvchining, ayniqsa yosh o‘qituvchilarning uslubiy –mahoratini oshirish maqsadida tajribali pedagoglarning ochiq (ko‘rgazmali) seminar mashg‘ulotlariga, o‘zaro mashg‘ulotlarga kirishni doimiy ravishda tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Xullas, seminar mashg‘ulotlarga tayyorlanish va o‘tkazishning shakl va usullari ko‘p qirrali bo‘lib, o‘qituvchi o‘quv jarayonining samaradorligini yanada kuchaytirish uchun o‘zining ilmiy bilimi darajasini va pedagogik mahoratini tinmay oshirib borishi kerak. O‘qituvchi seminar mashg‘ulotlari sifatini yanada yaxshilash uchun o‘z ishiga ijodiy munosabatda bo‘lishi shart. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlaridan tashqari muloqot, bahs, etnografik ekspeditsiya, ijodiy mashg‘ulot, davra suhbatlari uyushtirishi, matbuot va ilmiy nazariy anjumanlarning hujjatlaridan ham samarali foydalanish lozim.

SEMINAR MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI

1-seminar. Etnologiya va uning tarixi (2soat)

Reja:

1.Etnologiya fani predmeti. Fandagi maxsus atamalar. Etnoslarning tuzilishi. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Etnoslarning tarixiy turlari. Etnogenetika va etnik tarix muammolari. Etnik jarayonlar va uning turlari.

2.Etnologiyaning mustaqil fan sifatida XIX asr o‘rtalarida shakllanishi va uning vujudga kelishi jamiyatdagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat ehtiyojlariga asoslanishi haqida.

3.Etnologiyaning evolyutsionizm yo‘nalishi, - L.G.Morgan, Ed. Taylor, N.N. Mikluso-Maklay, I.Baxofen. Diffuzionizm maktabi: - R.Grebner, F.Ratsel, L.Frobenius va boshqalar. Funksional yo‘nalish: - R.Turnvald. R.Malinovskiy, A.R.Radkliif-Braun va hokazolar. Sotsiologiya maktabi. - S.E. Dyurkeym, L.Levi-Bryul. Etnopsixologiya maktabi. – F.Baos, A.Kardiner, R.Linton va boshq. Etnologiyadagi yangi konsepsiylar.

4.Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari. Manbalarning turlari. Etnologik tadqiqotlar. An’anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnosotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish usullari.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T., 2017.
2. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. -T., 2007.
3. Ashirov A. Etnologiya.- T. Sharq, 2015. 1986
4. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 2008.
5. Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология. -М., 2000.
6. Токарев С.А. Основы этнографии. -М.,1986.
6. Tursunov S., Bo‘riyev O. Etnologiyadan o‘quv – metodik

qo'llanma.-T.,1999.

7. Internet saytlari

www.history.ru

www.ziyonet.uz.

www.google.uz.

www.ethnology.com

2- seminar: Jahon xalqlari tasnifi (2soat)

Reja:

1.Geografik tasniflash. Tarixiy-etnologik viloyatlar.

2.Jahon xalqlarining antropologik tarkibi. Irqlar, irqiy tiplar. Yirik irqlar va ularning xususiyatlari. Kichik irqlar.

3.Tillar tasnifi. Til oilalarining genetik aloqalari. Etnos va til munosabatlari.

4.Din etnos madaniyatining muhim omili sifatida. Jahon dinlari: buddizm, xristianlik, islom. Davlat dinlari. Urug'-qabilachilikka oid diniy tasavvurlar.

5.Xo'jalikmadaniy tiplar va ularning asosiy belgilari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik-madaniy tiplari

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. T., 2007.

2. Ashirov A. Etnologiya. – T., Sharq, 2015.

3.Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –T., “O‘qituvchi”, 2008.

4. Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология. – М., 2000.

5. Токарев С.А. Основы этнографии. М., 1986

6. Tursunov S., Bo'riyev O. Etnologiyadan o'quv – metodik qo'llanma T.,1999.

7. Internet saytlari

www.history.ru

www.ziyonet.uz.

www.google.uz.
www.ethnology.com

3 -seminar: Avstraliya va Tasmaniya xalqlari (2 soat)

Reja:

1. Avstraliya aholisi etnogenezi va etnik tarixining asosiy bosqichlari. Avstraliya va tasmaniyaliklarning kelib chiqishi.
2. Aholining an'anaviy xo'jaligi
3. Moddiy madaniyati.
4. Ma'naviy madaniyati.

4 -seminar: Okeaniya xalqlari (2 soat)

Reja:

1. Melaneziya xalqlari. Papuaslar etnografiyasi.
2. Mikroneziya xalqlari.
3. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Австралия ва Океания : история, экономика, этногенез. - М.,1978
2. Бутинов Н. А. Папуасы Новой Гвинеи (Хозяйство, общественный строй) -М., 1968.
- 3 Дами Г. Канака- люди южных морей.-М. 1964.
4. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –Т., “O‘qituvchi”, 2008.
5. Кабо В.Р. Происхождения и ранняя история аборигенов Австралии. -М.,1969.
6. Пучков П.И. Население Океании. Этнографический обзор. М.1967.
7. Пучков П.И. Формирование население Меланезии.-М., 1968.
8. Пучков П.И. Этнические ситуации в Океании.- М., 1983.

9. Пучков П.И. Этнические развитие Австралии.- М., 1987.
10. Роуз Ф. Аборигены Австралии. -М., 1989.
11. Токарев С.А. Основы этнографии. -М., 1986
12. Internet saytlari
 - www.history.ru
 - www.ziyonet.uz.
 - www.google.uz.
 - www.ethnology.com

5-seminar: Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi (2 soat)

Reja:

- 1.Osiyo qit'asi xalqlariga oid umumiy ma'lumotlar.
2. Qit'a aholisining kelib chiqishi (etnogenezi).
3. Aholining etnik tarixi va tarkibi

6- seminar: G‘arbiy (Old) va Janubiy Osiyo xalqlari. (2 soat)

Reja:

1. Aholining etnogenezi, etnik tarixi va antropologiyasi.
2. G‘arbiy (Old) Osiyo xalqlari.
3. Janubiy Osiyo xalqlari

7-seminar. Janubi-Sharqiy,MarkaziyvaShimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari. (2 soat)

- 1.Sharqiy Osiyo xalqlari.
- 2.Markaziy Osiyo xalqlari
- 3.Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеенко Е.А. Кеты. Историко-этнографические очерки -Л., 1967.
2. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –T., “O‘qituvchi”, 2008.

3. Проблем анропологии и этнической истории Сибири.-М., 1992.
4. Потапов Л.П. Очерки по истории алтайцев.-М-Л., 1953.
5. Смоляк А.В. Этнические процессы у народов Нижнего Амура и Сахалина. -Л., 1975.
6. Социальная организация и культура народов Сибири. -М., 1974.
7. Токарев С.А. Основы этнографии. -М., 1986
8. Индонезия, Малайзия, Филиппин.-М., 1982.
9. Шпажников Г.А. Религии стран Юго-Восточной Азии.-М., 1980.
- 10.Этнические процессы и состав населения в странах Передней Азии. -М., 1903.
- 11.Этнические процессы в странах Южной Азии. -М., 1976.
12. Internet saytlari
 - www.history.ru
 - [www. ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
 - [www. google.uz.](http://www.google.uz)
 - www.ethnology.com

8- seminar: O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari. (2 soat)

Reja:

- 1.O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Iriqiy hamda tillardagi umumiylik va o‘ziga xosliklar.
2. Aholining an’anaviy xo‘jaligi. Xo‘jalik- madaniy tiplar. Dehqonchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti.
3. Moddiy madaniyati. Uy-joylarning aholi xo‘jaligi bilan bog‘liqligi. An’anaviy kiyimlari. Hunarmandchilik. Mintaqalar xalqlari taomlaridagi lokal xususiyatlar.
4. Ma’naviy madaniyat. Ijtimoiy tashkilotlari. Mahallachilik an’analari. Xalq og‘zaki ijodi. Islom va uning aholi ma’naviy

madaniyatiga ta'siri.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Басилов В.Н. Шаманства у народов Средней Азии и Казахстана. -М., 1992.
2. Bo'riyev O, Raxmonov F. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi.-Qarshi.,1997.
3. Гинзбург В.В.,Трофимова. Т.А.Палеантропология Средней Азии. -М., 1972
4. Гумилев Л.Н. Кадимги турклар. Т.,2007
5. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalklari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. -Т., 2003.
6. Doniyorov A.X., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalklari etnologiyasi.T., 2011,2014.
7. Древние обряды, верования и культуры народов Средней Азии. -М., 1982
8. Жилище народов Средней Азии и Казахстана. -М., 1982
9. Занятия и быт народов Средней Азии // СЭС. -М-Л., 1971
10. История, археология и этнография Средней Азии. -М., 1968
11. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана -Л., 1969.
12. Костюм народов Средней Азии и Казахстана -М., 1979.
13. Материальная культура и хозяйства народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. -Л., 1978
14. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. -Т., 2005.
15. Народы Средней Азии и Казахстана, Кн. 1. М., 1962; Кн. 2, -М., 1962
16. Очерки по истории хозяйство народов Средней Азии и Казахстана. -М., 1980

17. Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана -М., 1980.
18. Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана -М., 1978
19. Ходжайов Т.К., Джуракулов М.Д. Антропология Средней Азии Самарканд, -М., 1978
20. Ходайов Т.К., Этнические процессы в Средней Азии в эпоху средневековья -Т., 1987
21. Ходжайов Т.К. Абдуллаев К. Аждодларимиз киёфаси. -Т., 1990
22. Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана., -М., 1980
23. Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. -М., 1980
24. Узбеки. – М., 2011
25. Internet saytlari
 - www.history.ru
 - [www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)
 - [www.google.uz.](http://www.google.uz)
 - www.ethnology.com

9-seminar: Afrika xalqlari etnogenezi va etnik tarixi (2 soat)

Reja:

1. Afrika qit'asi xalqlariga oid umumiy ma'lumotlar.
2. Qit'a aholisining etnogenezi.
3. Aholining etnik tarixi va tarkibi

10-seminar. Shimoliy va G‘arbiy Afrika xalqlari (2 soat)

Reja:

1. Shimoliy Afrika xalqlari.
2. G‘arbiy Afrika xalqlari.
3. Shimoliy va G‘arbiy Afrika xalqlari moddiy hamda ma’naviy madaniyati.

11-seminar. Markaziy, Janubiy va Sharqiy Afrika xalqlari

(2 soat)

1. Markaziy Afrika xalqlari.
2. Janubiy Afrika xalqlari.
3. Sharqiy Afrika xalqlari.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. -T., 2007.
2. Андрианов Б.В. Население Африки.- М.,1987.
3. Африканцы в Новое Свете.-М., 1987.
4. Бернер О. Северная и Западная Африка.-М.,1962.
5. Браянт А.Т. Зулусский народ до прихода европейцев. -М.,1953.
6. Девисон Б. Африканцы. Введение в историю культуры.-М.,1975.
7. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –T., “O‘qituvchi”, 2008.
- 8.Община в Африки проблемы типологии М.,1978.
- 9.Львова Э. С. Этнография Африка.-М.,1984.
- 10.Рейт. Т. Народы Эпифании.-М.,1965.
- 11.Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология.-М., 2000. -М.,1973.
12. Токарев С.А. Основы этнографии.- М., 1986
- 13.Исмагилова Р.Г. Этнический проблемы современной Тропической Африки.

14. Шаревская Б.И. Старые и новый религии Тропический и Южной Африки.-М.,1964.

15.Шпажников Г.А. Религии стран Африка. -М.,1981.

16. Internet saytlari

www.history.ru

www.ziyonet.uz.

www.google.uz.

www.ethnology.com

12-seminar: Shimoliy Amerika xalqlari (2 soat)

Reja:

- 1.Shimoliy Amerika qit'asi xalqlariga oid umumiy ma'lumotlar.
2. Qit'a aholisining etnogenezi va etnik tarixi.
3. Shimoliy Amerika xalqlari.
4. Markaziy Amerika xalqlari .

13-seminar: Janubiy Amerika xalqlari (2 soat)

Reja:

- 1.Janubiy Amerika aholisi.
2. Aholining etnomadaniyati.
4. Amerikaning hozirgi etnik qiyofasi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. -Т., 2007.
- 2.Аверкиева Ю.П. Индейцы Северной Америки. -М.,1974.
- 3.Морган Л. Дома и домашняя жизнь американских туземцев. -М.,1934.
- 4.Морган Л. Древнее общества. -М.,1935.
- 5.От Аляски до Огненной Земли. -М.,1967.
- 6.Ляпунова Р.Г. Очерки по этнографии агуэтов.- М.,1975.
- 7.Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –Т., "O'qituvchi", 2008.

8. Токарев С.А. Основы этнографии. -М., 1986
9. Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология. – М., 2000.
10. Североамериканские индейцы. -М.,1978.
12. Теннер Д.Ж. 30 лет среди индейцев. -М.,1968
13. Файнберг Л.А. Индейцы Бразилии. -М.,1975.
14. Internet saytlari
www.history.ru
www.ziyonet.uz.
www.google.uz.
www.ethnology.com

14- seminar: Yevropa xalqlari (2 soat)

Reja:

1. G‘arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari.
2. Yevropa qismidagi sharqiy slavyan xalqlari.
3. Janubiy va Shimoliy Yevropaning noslavyan xalqlari.
4. Volga-Kama bo‘yi xalqlari va moldovanlar.
5. Kavkaz xalqlari.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. -Т., 2007.
- 2.Агларов. М.А. Сельская община в Нагорном Дагестане в XVII – начале XIX в. -М. 1988.
3. Балтийский этнографический сборник. -ТИЭ., н.с. -М., 1956.т 31.
4. Воробьева Н.И ., Львова А.Н., Симонова А.Р. Чуваши. – Чебоксары, 1956.
5. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. -Toshkent, “O‘qituvchi”, 2008.
6. Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология. -М., 2000.
- 7.Токарев С.А. Основы этнографии. -М.,1986
8. Типы сельского жилища в странах Зарубежной Европы. -

- М., 1968.
9. Календарные обычаи и обряды в странах Зарубежной Европы. Конец XIX - начале XX в. Зимние праздники М.1973; Весенние праздники. -М.,1977.; Летний - осенние праздники. -М., 19978.
10. Маслова Л.А. Материальная культура белорусов. Минск. 1968.
11. Косвен М.О. Этнография и история Кавказа. -М.,1961.
12. Кузеев Р.Г. Происхождения башкирского народа. -М.,1974.
13. Османов М.З. Формы традиционного скотоводство народов Дегестана в XIX- начале XX в. -М., 1990.
14. Русский семейный и общественный быт. -М.,1989.
15. Internet saytlari
www.history.ru
www.ziyonet.uz.
www.google.uz.
www.ethnology.com

15-seminar. Jahondagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar (2 soat)

Reja:

1. Hozirgi davrdagi migratsiya jarayonlari.
2. Aholi etnik tarkibidagi o‘zgarishlar.
3. Xo‘jalik hayotidagi transformatsion o‘zgarishlar.
4. Madaniyatdagi innovatsiyalar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T., 2017.
2. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. -T.,2007.
3. Ashirov A. Etnologiya. -T.,2015.

4. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. –Т., “O‘qituvchi”, 2008.
 5. Садохин А.П., Грушевицкая Г.Г. Этнология.-М., 2000.
 6. Токарев С.А. Основы этнографии. -М., 1986
 7. Tursunov S., Bo‘riyev O. Etnologiyadan o‘quv – metodik qo‘llanma.-Т.,1999.
8. Internet saytlari
www.history.ru
www.ziyonet.uz.

**II. “Etnologiya” fanidan “Etnologiya va uning tarixi”
mavzusi misolida 2 soatlik seminar
DARS ISHLANMASI**

Mavzu: “Etnologiya va uning tarixi”

Maqsad: Talabalarda quyidagi muammolar bo'yicha teran tushunchalar hosil qilish.

Etnologiyaning fan sifatida shakllanishii haqida tushuncha berish va qo'shimcha manbalardan foydalana bilish.

Kutilayotgan natija: Talabalarga Etnologiyaning fan sifatida shakllanishii haqida teran tushunchalar hosil qilish.

Material va jihozlar: Qo'llanmalar, etnologik xarita topshiriqlari, kartochkalar, mavzuga oid manba va adabiyotlar ko'rgazmasi, an'anaviy turar joylar tasviri tushirilgan rasmlar, doska, bo'r.

Eng muhim tushunchalar va atamalar: Etnogenetika, etnik tarix, til oilalari, irqi, xo'jalik va ijtimoiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyat.

I.Tashkiliy qism: Talabalarni mashg'ulotga jalb qilish: Jahon hafta ichida yoki O'zbekiston hafta ichida ruknida xalqaro ahvol haqida qisqa axborot berish.

Talabalarning yurtimizning qo'shni mamlakatlar bilan hozirgi davrdagi hamkorligi haqida axborotlarini tinglash.

II. O'tilgan seminar mavzusini takrorlash: Ilgarigi o'tilgan mavzuni qisqa takrorlash, frontal so'rab bilish yoki mavzu bo'yicha savol va topshiriqlarni talabalarning og'zaki javoblarini tinglash shaklida o'tkaziladi.

III. Yangi mavzu rejasi:

1. Etnologiyaning fan sifatidagi o'rni, predmeti va o'rganishning ahamiyati.

2. Etnologiyani yondosh fanlar (tarix, arxeologiya, antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, geografiya, tilshunoslik, folklor va h.k) hamda yangi shakllangan fanlar (etnoarxeologiya, etnoantropolo-

giya, etnik geografiya, etnodemografiya, etnobotanika, etnozoologiya, etnoekologiya, etnopedagogika va h.k.) bilan aloqadorligi.

3.Etnologiyada milliy qadriyatlar, xalqlar urf-odatlari va an'analari, diniy e'tiqodlari masalalarining o'r ganilishi.

Yangi mavzu qisqa bayoni:

1.Etnologiya –xalqlar to‘g‘risidagi mustaqil fan sifatida XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Mazkur fanning aynan shu davrda paydo bo‘lishining o‘ziga xos sabablari mavjud. Avvalo, bu davrda dunyo qit’alari orasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, turli xalqlarning mustamlaka tuzum ta’siriga tushib qolishi va mustamlakachi davlatlarni o‘z mustamlakalarini osonlik bilan boshqarishga intilishi u yerlarda yashovchi mahalliy xalqlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishni talab qilar edi.

Qolaversa, o‘scha davrda buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi natijasida dunyoning turli mintaqalari orasida o‘zaro etnomadaniy taraqqiyotdagi o‘zaro farqlarni, boshqa ellarda yashovchi etnik guruhlarning o‘ziga xos etnopsixologiyasi va ularning etnik o‘zlikni anglash mexanizmi, tarixning ma’lum davrlarida u yoki bu xalqning tutgan o‘rni, sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyoti hamda tanazzulida etnik omilning o‘rni kabi muammolarni paydo qildi.

Har bir fan o‘zining tadqiqot predmeti xosligi, uning tadqiqot etish uslublari bilan boshqa fandan farqlanib turadi.

Etnologiya fan tarzda paydo bo‘libdiki, to hozirgi kunga qadar xalq va xalqlarning madaniy o‘ziga xosligi uning asosiy tadqiqot obyekti bo‘lgan. Yanada kengroq tushuntirilsa mazkur fan turli xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi, ular ishtirokidagi an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, moddiy va ma’naviy madaniyat muammolari hamda etnoslararo jarayonlar ushbu doirasida tadqiq qilinadi. Demak fikrimizcha, etnologiya asosiy tadqiqot obyekti sifatida etnos bilan bog‘liq quyidagi jihatlarni o‘rganadi (Etnologiya

predmetini ma'lum bir tartibda bayon qilishda biz fanda an'anaviy bo'lib ulgurgan qarashlardan yangi noan'anaviy qarashlar tomon harakatlanishni ma'qul deb bildik.):

Etnogenetika va etnik tarix muammolari;

Xalqlarning moddiy madaniyati;

Xalqlarning e'tiqodiy qarashlari, milliy marosimlari va urf-odatlari;

Turli xalqlarning qarindoshlik tizimi: qarindosh-urug'chilik aloqalari;

Xalqlarning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalari (oilaviy munosabatlar va hokimiyat munosabati;

Turli xalqlarga xos tarbiya an'analari tizimi;

Bir xalq madaniyatining turli komponentlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik muammolari;

U yoki bu xalq madaniy xususiyatlari dinamikasi (madaniy o'zgarishlar);

Turli xalqlarning psixologik o'ziga xosligi;

Turli xalqlarning hayot tarziga moslashishi: ularning tabiiy muhitga moslashishi

Etnos qadriyatlarni taqqoslash;

Turli xalqlarning dunyo xaritasida taqqoslash;

Madaniyatlararo muloqtlarning o'ziga xos xususiyatlari;

Etnoslarning paydo bo'lishi va bo'linib ketishi sabablari;

Xalqlarning joylashuvi;

Etnoslar bilan bog'liq sodir bo'ladigan demografik jarayonlar;

U yoki bu etnos vakillarining iqtisodiy munosabatlari;

Etnolingvistika;

Etnomadaniyat muammolari;

An'ananing paydo bo'lishi va taraqqiyoti va innovatsiyasi;

Etniklik va etnik guruqlar muammosi.

Ushbu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin. Biroq mazkur

ro‘yxatning o‘zi ham etnologiyaning tadqiqot obyekti ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, ushbu ma’lumotlar etnologiyaning asosiy manbyai yozma manbalar hamda moddiy yodgorliklar bo‘lgan an’anaviy tarix fanidan birmuncha kengroq ekanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek etnologiyada insoniyat tarixining dastlabki yozma madaniyat shakllanganganicha bo‘lgan davrda yashagan va o‘zlarining alohida yozuvlariga ega bo‘lgan xalqlar-etnoslar asosiy tadqiqot obyekti tarzida o‘rganiladi.

Oldingi bo‘limda ta’kidlaganimizdek, XIX asr oxirida Yevropa-da etnologiyaning asosiy mavzusi ibridoiy sharoitda yashayotgan “*primitiv*” xalqlar bo‘lgan. Bu xalqlar misolida yevropalik tadqiqot-chilar go‘yoki o‘zlarining qaysidir ma’noda uzoq o‘tmishdagi “*tirik ajdodlari*”ni his qilganliklari bois ushbu xalqlar yevropalik tadqiqot-chilarni ko‘proq qiziqtirgan. Shuning uchun ham yevropaliklar “*orqada qolgan*” xalqlarga nisbatan “*primitiv*”, ya’ni “birinchi” degan iborani qo‘llaganlar. Bu borada “birinchi” xalqlar to‘g‘risida XIX asrdagi etnologiya maktablarining yirik namoyandalari hisoblangan Lyuis Genri Morganning “*Qadimgi jamiyat*”, Eduard Taylorning “*Ibtidoiy madaniyat*” kabi mashhur asarlari paydo bo‘lgan. Shuningdek nemis etnologiyasining asoschilaridan bo‘lgan Teodor Vays va Adolf Bastianlarning tadqiqotlari ham “ibridoiy xalqlar”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ular mazkur xalqlarni “madaniy rivojlangan xalqlar”, ya’niki Yevropa xalqlari bilan o‘zaro qiyosiy tarzda o‘rganishga bag‘ishlagan.

2.Etnologiyaning asosiy obyekti hisoblangan etnos o‘z rivojlanish asnosida iqtisodiy,ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda faoliyat olib boradi. Etnos faoliyatining yo‘nalishlarini mazkur madaniyat va jamiyatni o‘rganuvchi boshqa fanlar ham o‘rganadi. Etnologiya yuqorida ko‘rsatganimizdek doimiy ravishda bu kabi fanlar bilan aloqada bo‘ladi. *Antropologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, arxeologiya, sotsiologiya, politologiya va geografiya* kabi

fanlarो‘z tadqiqot mavzularining yaqinligi jihatidan etnologiyga yaqin turadi.

Etnologiyada tarix va etnomadaniyatni tadqiq qilishda **arxeologik materiallardan** ham keng foydalilanadi. Arxeologik moddiy (ashyoviy) manbalar deganda insoniyatning dastlabki ajdodlari yashagan makonlardan topilgan mehnat va urush qurollari, ular dafn etilgan joylar, keyingi taraqqiyot jarayonida qurilgan bino va insho-otlari (qal'a va qasrlar, hammomlar va karvonlarsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va shu kabilar)ning qoldiqlari, hamda uy-ro‘zg‘or va zeb-ziynat buyumlari tushuniladi. Yozma va og‘zaki manbalarga qaraganda arxeologik moddiy ashylar birmuncha ishonchliroq hisoblanadi. Ular yordamida ma’lum bir tarixiy voqeanning aniq vaqtini yoki moddiy madaniyat qurolining tarqalishi davrini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodning yuqori sifatliligi bugungi kunda arxeologik materiallarni zamonaviy shaklda o‘rganish va baholash mezonlariga asoslanadi. Masalan, bugungi kunda arxeologik materiallarni o‘rganishda statistik metodlardan keng ravishda foydalanimoqda. Shuningdek, keyingi vaqlarda etnoarxeologiya kabi yo‘nalish ham jadal rivojlanib bormoqda. Deskreptiv (tavsifiy) statistikani qo‘llash arxeologik materiallari zaxirasini to‘laligicha ochishga ko‘maklashsa, analitik statistika esa arxeologik materiallarning tipologiyasi va ilmiy gipotezalarni tekshirish imkonini beradi. O‘z navbatida mazkur ma’lumotlarning tahlili, bahosi va talqini etnologiyaga oid nazariyalar, g‘oyalar, konsepsiylar hamda madaniyatlar modellarining paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Etnologik tadqiqotlardagi asosiy metodlardan yana biri **taqqoslovchi tilshunoslik metodidir**. Bu metodning mohiyati turli tillardagi ma’lum so‘zlarni taqqoslashdan iboratdir. Bu o‘z navbatida o‘zaro yaqin qarindosh tillarning aloqalari chegarasi va ularning

qarindoshlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

IV. Seminar mavzusi ustidan ishlash:

Bu vazifa talabalarining matn ustida ishlari orqali bajariladi.

V. Guruhlarda ishlash:

Talabalar 5 guruhga bo‘linadi. Ularning qo‘llanma, adabiyot-lar, matnlar bo‘yicha mustaqil ishlari quyidagicha topshiriqlarni bajarish bilan mustahkamlanadi.

1 –guruhgaga topshiriq::

Etnologiya atamasining kelib chiqishi haqida so‘zlab bering?

2 –guruhgaga topshiriq:

Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi haqida ma’lumot bering?

3 –guruhgaga topshiriq:

Etnologiya maktablari to‘g‘risida gapirib bering?

4 –guruhgaga topshiriq:

Etnologiya va etnografiyaning bir-biridan farqi qanday?

5 –guruhgaga topshiriq:

Etnologiyaning boshqa fanlar bilan o‘rganilishi to‘g‘risida ma’lumot bering?

VI. Aqliy hujum:

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.

Etnologiya atamasini birinchi marta fanga kim kiritgan?

(1784- yilda A.Shavann tomonidan.)

Birinchi marta qayerda etnologiya jamiyatni ochilgan?

(1839-yil Parijda Fransiyadagi etnologlar jamiyatni, 1842-yil AQShda tashkil topgan).

Etnografiya atamasi qanday ma’noni anglatgan?

(Etnografiya yunoncha so‘z bo‘lib, “etnos” -xalq “grafiya”-tavsiflash degan ma’nonlarni anglatadi)

VII. Mashg‘ulotlarni yakunlash:

Talabalar javoblariga qo‘yilgan ballar e’lon qilinadi.

Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob olinadi.

VIII. Savollar va topshiriqlar:
Mavzu yakunidagi savollarga javoblar tayyorlash.
Kelgusi seminar mashg‘ulot o‘rganiladigan mavzu mazmuni bilan tanishib kelish.

Manba va adabiyotlar:

1. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. T.,2007.
2. Ashirov A. Etnologiya. T.,2014.
3. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnografiyasi. T.,1985.
- 4.Tursunov S.N., Bo’riyev O. Etnologiyadan o‘quv – metodik qullanma. T.,1999.

Referat mavzulari:

1. Etnologiya fan tarzida va uning tarixi.
2. Etnologiyaning tadqiqot predmeti va asosiy metodlari.
3. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari.
4. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va AQShda etnologiya fanining shakllanish tarixi.
5. Etnologiyaning zamонавија jamiyatdagi о‘рни va ahamiyati.

III.“Etnologiya” fanidan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari” mavzusi misolida seminar mashg‘ulotlarida o‘qitish texnologiyasi

Mavzu. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 25 – 30 nafar
O‘quv mashg‘uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
O‘quv mashg‘uloti rejasи	<p>1.O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Irqiy hamda tillardagi umumiylig va o‘ziga xosliklar.</p> <p>2.Aholining an‘anaviy xo‘jaligi. Xo‘jalik- madaniy tiplar. Dehqonchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti.</p> <p>3.Moddiy madaniyati. Uy-joylarning aholi xo‘jaligi bilan bog‘liqligi. An‘anaviy kiyimlari. Hunarmandchilik. Mintaqa xalqlari taomlaridagi xususiyatlari.</p> <p>4.Ma‘naviy madaniyat. Ijtimoiy tashkilotlari. Mahallachilik an‘analari. Xalq og‘zaki ijodi. Islom va uning aholi ma‘naviy madaniyatiga ta’siri.</p>
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlash	
– Pedagogik vazifa lar: – mavzu bo‘yicha limlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. – darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish; – etnografik manba larni tahlil	O‘quv faoliyatining natijalari: Talabalar: O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi masalalarini tavsiflaydi; Irqiy hamda tillardagi umumiylig va o‘ziga xosliklarga izoh beradi; Aholining an‘anaviy xo‘jaligi, madaniy tiplar, dehqonchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti masalalarini yoritadi; Moddiy madaniyati, uy-joylarning aholi xo‘jaligi bilan bog‘liqligi, an‘anaviy kiyimlari, hunarmandchilik, mintaqa xalqlari taomlaridagi xususiyatlarni ko‘rsatib beradilar;

qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish	-Ma’naviy madaniyat, ijtimoiy tashkilotlari, mahallachilik an’analari, xalq og‘zaki ijodi, Islom va uning aholi ma’naviy madaniyatiga ta’siri kabi masalalarni sharhlab beradilar
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blits so‘rov, esse, B.B.B, munozara
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska
O‘qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, indivi- dual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta’minlangan, guruhda dars o‘tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1- bosqich.Kirish (10 min)	<p>1.1.Mavzuning, maqsadi, rejdagi o‘quv natijalarini e’lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>Mashg‘ulotda hamkorlikda ishslash texnologiyasini qo‘llagan holda o‘tishini ma’lum qiladi.</p> <p>1.2.”Aqliy hujum” usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:</p> <p>Etnogenetika va etnik tarix nima?</p> <p>Mavzuning muhokamasi guruhlarda davom etishini e’lon qiladi.</p>	Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi.
2- bosqich. Asosiy (60 min)	<p>2.1.Talabalarning 3 guruhga bo‘ladi, har biriga vazifa beradi (2- ilova).</p> <p>Kutilayotgan o‘quv natijalarini eslatadi.</p> <p>2.2.Guruhda ishslash qoidasi bilan tanishtiradi (1- ilova).</p> <p>Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi (3- ilova).</p> <p>2.3.Vazifani bajarishda o‘quv materiallari (ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanma)laridan foydalanish mumkinligini esla-</p>	<p>2.1.O‘quv natijalarini taqdim qiladi.</p> <p>2.2.Savollar beradi.</p> <p>2.3.Javoblarni to‘ldiradi.</p> <p>2.4.Jadval ustunlarini to‘ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.</p>

	<p>tadi.</p> <p>Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>2.4.Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e’lon qilinadi.</p> <p>2.5.Talabalar javobini sharhlaydi, xulosalarga e’tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>2.6.Talabalarga B. B. B. usuli bo‘yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarни to‘ldirishni aytadi (4- ilova).</p> <p>Tushunchalarga izohlarni to‘g‘rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.</p>	
3- bosqich. Yakuniy (10 min)	<p>3.1.Mashg‘ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2.Mustaqil ish sifatida “O‘rta Osiyo xalqlari etnografiyasining o‘rganilishi” mavzusida esse yozishni topshiradi. Esse yozish qoidasini tushuntiradi (5- ilova)</p>	<p>3.1.Eshitadilar.</p> <p>3.2Topshiriqni oladilar.</p>

- Guruh bilan ishslash qoidalari;
 - Guruh a'zolarining har biri;
 - o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
 - berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishslashlari lozim;
 - o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
 - yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
 - guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
 - "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutulamiz"
- qoidasini yaxshi bilishlari lozim

1-guruhi.

O'quv topshiriqlar

I- ilova

Qadimgi Yunon va Xitoy manbalarida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari haqidagi etnografik ma'lumotlar beruvchi asarlarning nomlarini keltiring. O'rxun – Enasoy yozuvlari haqida nimalarni bilasiz?

2- guruhi.

Tarixiy, arxeologik va etnografik, numizmatik manbalar haqida nimalarni bilasiz?

3- guruhi.

Lingvistik va folklor va boshqa manbalar haqida ma'lumot bering?

Baholash mezonlari (baho)

3- ilova

Baho	Talabaning bilim darajasi
“5”-a’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
“4”-yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish
“3”-qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
“2”-qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

B. B. B. usulida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

4- ilova

T/r	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	O‘rtal Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini.		
2	Aholining an'anaviy xo‘jalik - madaniy tiplari taraqqiyotini.		
3	Moddiy madaniyatini.		
4	Ma’naviy madaniyatni		

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho

5-ilova

Esse – bu muallifning ta’kidlab o‘tadigan individual pozitsiyasi-dagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Asoslangan esse

Asoslangan esse – qo‘ylgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma’lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o‘zining pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

**“Etnologiya” kursi bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarining
taqvimiylar mavzu rejasi**

II-semestr uchun

T/r	Seminar mashg‘ulotlari mavzulari	Soat	Bajarilishi		Izoh
			soat	Muddat	
1	Etnologiya va uning tarixi.	2 soat			
2	Jahon xalqlari tasnifi.	2 soat			
3	Avstraliya va Tasmaniya xalqlari.	2 soat			
4	Okeaniya xalqlari.	2 soat			
5	Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi.	2 soat			
6	G‘arbiy (Old) va Janubiy Osiyo xalqlari.	2 soat			
7	Janubi-Sharqiy va Shimoliy Osiyo xalqlari.	2 soat			
8	O‘rtal Osiyo va Qozog‘iston xalqlari.	2 soat			
9	Afrika xalqlari etnogenezi va etnik tarixi.	2 soat			
10	Shimoliy va G‘arbiy Afrika xalqlari.	2 soat			
11	Markaziy, Janubiy va Sharqiy Afrika xalqlari	2 soat			
12	Shimoliy Amerika xalqlari	2 soat			
13	Janubiy Amerika xalqlari.	2 soat			
14	Yevropa xalqlari	2 soat			
15	Jahondagi zamонавиyy etnomadаний jarayonlar	2 soat			
	JAMI:	30 soat			

IV.Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish 5 baholik mezon asosida baholanadi

"5" baho uchun talabanining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

"4" baho uchun talabanining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

"3" baho uchun talabanining bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

quyidagi hollarda talabanining bilim darajasi "2" baho bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

V.Referat mavzulari

- 1.Etnografiya fani manbalari va tarixi.
- 2.Jahon xalqlari etnologiyasidagi eng asosiy yo‘nalish, oqimlar va maktablar.
3. N.N.Mikluxo-Maklay – mashhur rus sayyohi va etnografi.
- 4.L.G. Morgan asarlarida Amerika aborigenlari etnografiyasini masalalari.
- 5.Jahon xalqlari tasnifi
- 6.Avstraliya va Tasmaniya xalqlari
- 7.Okeaniya xalqlari etnik tarixi
- 8.Poliniziya xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyati.
9. Melaniziya va Gvineya xalqlari xo‘jaligi
10. Mikroneziya xalqlari madaniyati va ijtimoiy munosabatlari
11. Amerika xalqlari etnografiyasining o‘rganilishi
- 12.Amerika xalqlari etnik tarixi
- 13 Amerika xalqlari an’anaviy xo‘jaligi
- 14.Amerika xalqlari moddiy madaniyati
- 15 Amerika xalqlari ma’naviy madaniyati
- 16.Amerikada hozirgi etnik jarayonlar
- 17 Afrika xalqi etnografiyasini o‘rganish
- 18.Afrika xalqlari etnogenezi va etnik tarkibi.
- 19.Afrika xalqlari tasnifi (tili, irqi, dini, xo‘jalik-madaniy tiplari va hokazo).
20. Shimoliy Afrika xalqlari
21. Afrika xalqlari an’anaviy xo‘jaligi.
22. Afrika xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyati
- 23.Afrika xalqlari ijtimoiy munosabatlari.
- 24.Afrikadagi hozirgi etnik -madaniy jarayonlar
- 25.Yevropa xalqlari etnografiyasini o‘rganish.
- 26 Yevropa xalqlari etnogenezi, etnik tarkibi, dini va til oilalari.
27. Yevropa xalqlari ananaviy xo‘jaligi.

28. Yevropa xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati.
29. Yevropadagi zamonaviy etnik jarayonlar.
- 30 Sharqiy slavyanlar etnografiyasining o'rganilishi
31. Sharqiy slavyanlar xo'jaligi,moddiy va ma'naviy madaniyati
- 32.Sharqiy Yevropada yashovchi slavyan bo'limgan. xalqlar
- 33.Osiyo xalqlari etnografiyasining o'rganilishi
34. Osiyo xalqlari etnik tarkibi, antropologiyasi va til oilalari
- 35.Osiyo xalqlari dini va xo'jalik-madaniy tiplari
36. Osiyo xalqlari an'anaviy xo'jaligi
37. Osiyo xalqlari ijtimoiy munosabatlari
38. Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati
39. Osiyodagi zamonaviy etnik jarayonlar.
40. Kavkaz xalqlari etnografiyası
41. Sibir xalqlari etnografiyasını o'rganish
42. O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasining o'rganilishi.
43. O'rta Osiyo xalqlarining etnik tarkibi.
44. O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati
45. O'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi)
46. O'zbek xalqi etnik tarixini o'rganish
47. O'zbek xalqining an'anaviy xo'jaligi
48. O'zbek xalqining moddiy madaniyati.
- 50.Akademik K.SH.Shoniyozov asarlarida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari

VI.Fan bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat savol variantlari.

VI.1.I oraliq nazorat savol variantlari

1-variant

- 1.Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi.
- 2.Jahon xalqlarini geografik tasniflash.
- 3.Avstraliya xalqlarini an’anaviy xo‘jaligi

2-variant

1. Etnologiya metodlari.
2. Jahon xalqlarini til oilalari bo‘yicha tasnifi
3. Tasmaniya xalqlarining ijtimoiy tuzumi.

3-variant

- 1.Etnologiya fanining manbalari va tarixi.
- 2.Jahon xalqlarini antropologik tasniflash.
- 3.Polineziyaliklarning tili va irqi.

4-variant

- 1.Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 2.Jahon xalqlarini diniy tasniflash.
- 3.Yangi Gvineya xalqlari

5-variant

- 1.Jahon xalqlarining xo‘jalik-madaniy tiplari.
- 2.Avstraliya xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati.
- 3.Melaneziya xalqlarining etnogenezi, tili va irqi.

6-variant

- 1.Etnologiya fani muammolari va ularning yechimi.
- 2.Yangi Zelandiya xalqlari.
- 3.Mikroneziya xalqlarining an’anaviy mashg‘ulotlari.

II oraliq nazorat savol variantlari

1-variant

1. Polineziya xalqlarining ma’naviy madaniyati.
2. G‘arbiy Osiyo xalqlarining an’anaviy xo‘jaligi.
3. Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasi xalqining moddiy madaniyati.

2-variant

1. Koreya xalqining an'anaviy xo'jaligi.
2. Hind xalqining urf-odat va marosimlari.
3. Yangi Gvineya xalqlari xo'jaligi va madaniyati.

3-variant

1. Janubiy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati.
2. Yapon xalqining diniy e'tiqodlari.
3. Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy xo'jaligi.

4-variant

1. Sharqiy Osiyo xalqlarining antropologik va lingvistik tasnifi.
2. Qozoq xalqining etnogenezi va etnik tarixi.
3. Xitoy xalqining an'anaviy xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi.

III-oraliq nazorat savol variantlari

1-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarning kelib chiqish tarixi.
2. G'arbiy Afrika xalqlarining ma'naviy madaniyati.
3. Janubiy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaligi.

2-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarning tillari.
2. Markaziy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati.
3. Sharqiy Afrika xalqlarining ma'naviy madaniyati.

3-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarining antropologiyasi.
2. Markaziy Afrika xalqlarining tillari.
3. Janubiy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati.

4-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy madaniyati.
2. G'arbiy Afrika xalqlarining irqiy qiyofasi va tillari.
3. Sharqiy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaligi.

VI.2.Yakuniy nazorat savol variantlari

1-variant

- 1.Etnologiya fanining manbalari va tarixi
2. Janubiy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaligi.
- 3.Avstraliya xalqlari etnogenezi, tili va irqi

2-variant

1. Etnologiyadagi turli maktablar va yo'nalishlar
2. Etnologiyadagi asosiy atamalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari
3. Tasmaniya xalqlarining an'anaviy xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi

3-variant

1. Etnologiyaning asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llari
2. Juhon xalqlarini yirik til oilalari bo'yicha lingvistik tasniflash
3. Avstraliya xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati

4-variant

1. Juhon xalqlarining etnik tarkibi
2. Tasmaniya xalqlarining etnogenezi, tili va irqi
3. Mikroneziya xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati

5-variant

1. Polineziya xalqlarining ma'naviy madaniyati
2. G'arbiy Osiyo xalqlarining an'anaviy xo'jaligi
3. Mo'g'uliston Xalq Respublikasi xalqlarining moddiy madaniyati

6-variant

- 1.Koreya xalqlarining an'anaviy xo'jaligi
- 2.Hind xalqining urf-odatlari va marosimlari
- 3.Yapon xalqining an'anaviy xo'jaligi va madaniyati

7-variant

- 1.Janubiy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati
- 2.Yapon xalqining diniy e'tiqodlari
- 3.Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy xo'jaligi

8-variant

- 1.Sharqiy Osiyo xalqlarining antropologik va lingvistik tasnifi
- 2.Qozoq xalqining etnogenezi va etnik tarixi
- 3.Xitoy xalqining an'anaviy xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi

9-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarning kelib chiqish tarixi.
2. G'arbiy Afrika xalqlarining ma'naviy madaniyati.
- 3.Etnologiyaning tadqiqot metodlari

10-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarning tillari.
- 2.F.Baosning Amerika tarixiy maktabi va uning etnologiya hamda madaniy antropologiyaning keyingi taraqqiyotiga ta'siri.
3. Sharqiy Afrika xalqlarining ma'naviy madaniyati.

11-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarining antropologiyasi.
2. Markaziy Afrika xalqlarining tillari.
- 3.Etnologiyadagi lingvistik tasniflash.

12-variant

1. Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy madaniyati.
2. G'arbiy Afrika xalqlarining irqiy qiyofasi va tillari.
- 3.Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.

13-variant

- 1.Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va AQShda etnologiya fanining shakllanish tarixi.
- 2.Etnologiyaning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati.
3. Sharqiy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaligi.

14-variant

- 1.Etnologiyadagi yangi konsepsiylar.
- 2.Markaziy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati.
3. "Etnos" va "etniklik" tushunchalarining mohiyati .

15-variant

1. Etnogenез va etnik tarix doirasi bo‘yicha K.Shoniyozov va A.Asqarov qarashlari.

2. Etnos va irq. Turli xalqlarga xos irqiy alomatlar.

3. Janubiy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati.

16-variant

1. Dunyo xalqlarining yirik mintaqalar bo‘yicha geografik klassifikatsiyalash.

2. Dunyo xalqlarining antropologik (irqiy) tasniflash.

3. Etnogenetik aloqalar.

17-variant

1. Etnogenezning boshlang‘ich bosqichlari-irqlarning shakllanishi, etnolingvistik va etnopsixologik omillar.

2. Etnologiyaga doir tushuncha va atamalarining mohiyat – mazmuni.

3. Melaneziyada etnik guruhlarning joylashuvi.

18-variant

1. Mikroneziyaga odamlarning kelib joylashuvi muammolari.

2. Qadimgi sivilizatsiya.

3. Janubiy Osiyoning geografik tuzilishi.

19-variant

1. Sibir xalqlari geografik joylashuvi.

2. Osiyo xalqlarini qadimgi va o‘rta asrlardagi madaniyatlarining tanazzuli.

3. Odamlarning Amerikaga joylashuvi. Migratsiya yo‘llari haqida farazlar.

20-variant

1. Yevropaliklar mustamlakachiligi va uning etnomadaniy oqibatlari.

2. Shimoli-g‘arbiy sohil indeyslari.

3. Peru va Meksikadagi qadimgi dehqonchilik madaniyati.

21-variant

1. Shimoliy Amerikaning indeys va Yevropadan kelgan xalqlari.
2. Pompa indeyslari va Olovli yerliklar.
3. Sharqiy slavyan xalqlari tarkibidagi etnografik guruhlar.

22-variant

1. Kavkaz xalqlarining xo‘jaligi, moddiy va ma’naviy madaniyatidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.
3. Janubiy Afrika xalqlarining moddiy madaniyatni.

23-variant

1. Etnologiyadagi atamalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Amerika indeyslari etnologiyasi.
3. Qadimgi sivilizatsiya.

24-variant

1. Odamlarning Amerikaga joylashuvi. Migratsiya yo‘llari haqida farazlar.
2. Etnogenezning boshlang‘ich bosqichlari-irqlarning shakllanishi, etnolingvistik va etnopsixologik omillar.
3. Jahan xalqlarining antropologik (irqiy) klassifikatsiyasi.

25-variant

1. Etnogenetika va etnik tarix bo‘yicha akademik A. Asqarov qarashlari.
2. Markaziy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati.
3. “Etnos” va “etniklik” tushunchalarining mohiyati hamda bu boradagi zamonaviy qarashlar.

26-variant.

1. XX asrning 90-yillari – XXI asr boshlarida jahonda etnodemografik jarayonlar.
2. Etnologik tadqiqotlar bo‘yicha yangicha usullar.
3. Hozirgi davrdagi migratsiya jarayonlari

27-variant

- 1.Etnos to‘g‘risida yangicha qarashlar
- 2.Rus lshunosi Y.V.Bromley qarashlari
- 3.Jahon xalqlarining zamonaviy etnik qiyofasi

28-variant

- 1.L.N.Gumilyov ilmiy merosi
- 2.Jahon etnologiyaning muammolari
- 3.Etnologiyada innovatsiyalar

29-varinat

- 1.Jahon etnologiyasi tizimida o‘zbek xalqi qadriyatlari
- 2.Etnologiyada AKTning roli
- 3.Etnologiyaning yangicha metodlari

30-variant.

- 1.Jahondagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar
- 2.Etnologiydagи yangi yo‘nalishlar
- 3.Hozirgi globallashuv davrida etnologiyaning o‘rni va roli

XOTIMA

Etnologiya fanidan seminar mashg‘ulotlari o‘tkazish bo‘yicha ushbu uslubiy qo‘llanmaning o‘ziga xos asosiy xususiyati hozirgi istiqlol davrida mazkur kursning juda muhimligi hamda talabalar kursini chuqur o‘rganish jarayonida jahon, O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklarning boy etnografiyasi bilan yaqindan tanishadilar.

Eng avvalo, har bir talaba etnologiya fanining dolzarb masalarini mukammal bilishlari shart. Jonli fikr, mushohada yuritish har bir talaba uchun ham nihoyatda zarur. Talabalar etnologiya bo‘yicha manba va adabiyotlarni chuqur o‘rganish ustida tinimsiz ish olib borishlari lozim. Barcha turdagи mashg‘ulotlardan asosiy maqsad talabalarda mustaqil fikr, chuqur mulohaza va mushohada yuritishdan iboratdi. O‘qituvchi o‘z imkoniyatlardan foydalanib talabalarni ijodiy izlanishga, fikrlashga hamda manba va adabiyotlarni mukammal bilishga o‘rgatishi kerak.

Suhbat, munozaralar tashkil etish , yozma ishlar, test sinovlari va savol javob (kollokvium)lar o‘tkazish amaliy mashg‘ulotlarning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. O‘qituvchi bahs kechalari, davra suhbatlari, ilmiy nazariy konsultatsiyalarini ko‘proq uyuشتirsa mashg‘ulotlarning samaradorligini yanada oshadi. O‘quv mashg‘ulotlarida talabalar ongida ona yurtga, xalqimizga mehr muhabbat tuyg‘ularini singdirish uchun imon-e’tiqod, insoniylik, vatanparvarlik va baynalmilallik kabi ezgu fazilatlarni shakllantiradi.

Haqiqatdan ham ko‘p ming yillik ma’naviyatimiz va moziy tariximizning qo‘lga kiritilgan tajriba va ulkan yutuqlar ahamiyati bilan boyitib berish istiqlol sharofatidir. Mustaqillik deb atalgan oliv ne’mat imkoniyatlardan, samarali foydalanib, o‘tmish va hozirgi davrni tarixiy qiyoslash usulida haqqoniy, xolisona, chuqur ilmiy asosda talabalarga o‘rgatilsa ularga shu tarzda jahon andozalariga mos ravishda saboq berilsa, kelajagi buyuk O‘zbekistonning yo‘li yanada nurafshon bo‘laveradi.

Adabiyotlar ro'yxati

I. Asosiy adabiyotlar

1. Токарев С.А. Основы этнографии. М., 1986
2. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. - Т:，“O'qituvchi”, 2008.
3. Народы Средней Азии и Казахстана .Под ред. Толстова С.П. Т. 1, 2 М., 1962-1963
4. Аверкиева Ю.И. Индейцы Северной Америки. М., 1974

II.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Т., 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi xam ulug' , xayoti yorug' va kelajagi faravon bo'ladi. 3-jild.T., 2019
3. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Т., 2015
4. Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. Т., 2007.
5. Ashirov A. Etnologiya. – Т.: Sharq, 2015.
6. Bo'riev O. Etnologiya amaliyotini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar. Qarshi, 2018
7. Doniyorov A., Bo'riev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo etnografiyasi. Т., 2011, 2014
8. Маськова Э.В и др.Этнология. – М., 2005
9. Садохин А.П., Грушевицкая Т.Г. Этнология. – М., 2000.
10. Tursunov S., Bo'riev O. Etnologiyadan o'quv - metodik qo'llanma Т.,1999.
11. Shoniyofov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Т., 2001

Internet saytlari

www.ziyonet.uz.

www.history.ru

www.ethnology.com

M U N D A R I J A

Muqaddima.....	3
I. O‘quv materiallarining tarkibi.....	5
II.”Etnologiya” kursidan “Etnologiya va uning tarixi” mavzusi misolida 2 soatlik seminar ishlanmasi.....	23
III.”Etnologiya” kursidan “O‘rta Osiyo va Qozog“iston xalqlari” mavzusi misolida seminar mashhg‘ulotlarida o‘qitish texnologiyasi.....	30
IV.Baholash mezoni.....	38
V.Referat mavzulari.....	39
VI.Fan bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat savol variantlari.....	40
Xotima.....	48
Adabiyotlar ro’yxati.....	49